

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YAGONA TO‘G‘RI YO‘LI-TA‘LIM SIFATINI OSHIRISH**ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ-ЕДИНСТВЕННО ПРАВИЛЬНЫЙ ПУТЬ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА****IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IS THE ONLY CORRECT WAY FOR THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN****Xudayberdiyev Asomiddin Kurbonkulovich¹**

¹Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Usmonova Mashxura Jumakulovna²

²Toshkent pediatriya tibbiyot instituti patologik fiziologiya, gistologiya kafedrasida assistenti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yagona to‘g‘ri yo‘li ta‘lim sifatini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida zamonaviy o‘qitish metodlarini joriy qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, yangi ta‘lim muassasalarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarga alohida urg‘u berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается создание новых приемов и технологий в условиях глобализации, идейно-мировоззренческие аспекты защиты от угроз кибертерроризма в виртуальном пространстве, в условиях расширения социального бытия, новизна, возникающих проблем в социокультурной жизни общества, и освещаются вопросы, связанные с изучением достаточно конфликтных процессов с новыми технологическими проблемами.

Abstract

In this state, the development of a new Uzbekistan is the only true way to improve the quality of education, introduce modern teaching methods at all levels of lifelong education systems, strengthen the material and technical base, and create new educational institutions. amenities and support for youth.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, uchinchi Renessans, ta‘lim sifati, kreativ fikrlash, investitsiya, “mashhurlik sindromi”, ijtimoiy tarmoqlar, ijod maktablari, xususiy sektor, davlat xususiy sherikchilik.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, третий Ренессанс, качество образования, креативное мышление, инвестиции, «синдром популярности», социальные сети, творческие школы, частный сектор, государственно-частное партнерство.

Key words: New Uzbekistan, third Renaissance, quality of education, creative thinking, investments, “popularity syndrome”, social networks, creative schools, private sector, public-private partnership.

KIRISH

Globalashuv sharoitida insonlarning eng asosiy ma‘naviy ehtiyojini qondirishga qaratilgan turli darajadagi va mazmundagi bilimlar kundan kunga ilmiy-texnika taraqqiyoti va ilg‘or texnologiyalar ta‘sirida o‘zgarib bormoqda. Yangi ilmiy-texnik, fundamental va eksperimental bilimlarning qanchalik o‘z vaqtida va samarali o‘zlashtirilishiga hamda amaliyotga joriy qilinishiga har bir mamlakatning zamon talablariga muvofiq rivojlanishi bevosita bog‘liq. Bu yerda gap faqat ishlab chiqarishga bevosita aloqador bilimlar haqidagina ketayotgani yo‘q.

Jahondagi ko‘plab mamlakatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganganimizda, ularda yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga va ilm-faniga, yangi texnologiyalar rivojlanishiga berilgan imkoniyatlar, yaratilgan moddiy-iqtisodiy infratuzulma benihoya ulkan darajada bo‘lganligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Shu sababdan, yurtimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatida, sohalardagi islohotlarda ilm-fan rivojiga va yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga ustuvorlik berilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar bilan ishlash, manbalarni o‘rganish va ma‘lumotlar tahlili orqali yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yagona to‘g‘ri yo‘li-ta‘lim sifatini oshirish ekanligi va unga oid jihatlarni yoritishdan iborat.

O‘zbekistonda zamon talablariga mos ravishda yoshlarga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida mustahkam

huquqiy baza yaratildi (shu kungacha mamlakatimizda yoshlarga oid 100 dan ziyod normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ko'plab xalqaro normalar ratifikasiya qilingan). Masalan: "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari" [2] va boshqa normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

So'ngi yillarda o'zbek ta'lim-tarbiya tizimini yangi sifat darajasiga chiqarish, o'quvchi-yoshlarga horij tajribasi asosida zamonaviy bilimlarni berish va hosil bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish uchun ta'limda uzviylik ta'minlanmoqda, samaradorlik oshirilmogda. Zamon talablari asosida milliy ta'lim-tarbiya tizimi modernizasiya qilinmogda. Yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va pedagog xodimlari obro'yini ko'tarish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur imkoniyatlar yaratish bo'yicha izchil va tizimli ishlar amalga oshirilmogda. Shu sababdan davlat rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida: **"Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir.**

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

"Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,
Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak.»[4], Shu tariqa «Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz" [5], - deya e'lon qildi hamda "bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish" vazifasini qo'ydi.

Maktabgacha ta'lim vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan matabgacha ta'lim tashkilotlari soni 19316 taga (2021-yil iyun oyi holatiga ko'ra) yetgani ta'kidlandi. 2017-yilga (5211 ta) nisbatan 4 barobar o'sish qayd etildi. Shundan, davlat qaramog'idagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 6258 ta (32 foiz), nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari esa 13058 tani tashkil etadi. Xususiy sektor turlari bo'yicha xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 795 tani (6 foiz), davlat xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 1051 tani (8 foiz), oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni esa 11212 tani (86 foiz) tashkil etgan.[8]

Yoshlarning aqliy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularni jismonan va ruhan sog'lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo'lishga intilish tuyg'usini shakllantirish maqsadida respublikaning 9 ta hududida ijod maktablari va 3 ta ixtisoslashtirilgan internat-maktablar tashkil etildi. Mamlakatning turli hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan ijod va ixtisoslashtirilgan internat-maktablar ta'lim tizimidagi boshqa maskanlardan har jabhada farq qilib, asosiy maqsad sifatida o'quvchilardagi ijodiy qobiliyatni ko'rsatish, shakllantirish va o'qiyotgan fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni egallash belgilab qo'yilgan. Mazkur maktablarda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash davlat siyosatining samarali vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Bu ta'lim maskanlari yangi avlod kadrlarini yetishtirishda muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Ta'lim tizimidagi zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini o'quv jarayonlarida keng qo'llanilmogda. Milliy ta'limni informatsion texnologiyalar davrida egallashga qodir iste'dodli va iqtidorli yoshlarni ilmiy qiziqishlarini rag'batlantirib, ularga o'z ilmiy salohiyatini namoyish etishga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatilib, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmogda. [9]

Xususan, xalqaro miqyosda o'tkazilib kelinayotgan fan olimpiadalarida ishtirok etib, mamlakatimiz sharafini himoya qilgan, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan o'quvchi yoshlarimiz qoninchilikda belgilangan tartibda BHM ning 500, 300, 200 baravari miqdorida moddiy rag'batlantirish (pul mukofotlari), yurtimiz fan olimpiadalari g'oliblari esa tegishli fan sohasi bo'yicha davlat oliy ta'lim

muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqini beruvchi sertifikatni qo'lga kiritishmoqda. Bu imkoniyatlar, albatta, bilimli, aqlli va tashabbuskor o'quvchi yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish uchun qilinayotgan davlat siyosatidir.

Maktabda bolalarning ehtiyojlarini yanada o'stirish va qondirish, bo'sh va dam olish vaqtini samarali tashkil etish uchun davlat hokimiyati, nodavlat notijorat tashkilotlari, tijorat tashkilotlari hamkorligi yo'lga qo'yilmoqda. Madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tashkil etilib, maktabdan tashqari ta'lim uzluksiz ta'limning tarkibiy qismiga aylantirilmoqda. Bolalar va o'smirlar ma'naviy ehtiyojlarini yuksaltirish uchun ijod uylari va saroylari, madaniyat markazlari va klublari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, musiqa va san'at maktablari, axborot markazlari, kutubxonalar, sog'lomlashtirish maskanlarini tashkil etish qonunchilik orqali belgilab qo'yildi. Bugungi kunda shunday muassasalar Toshkent shahri, viloyat va tuman markazlarida, shuningdek, yurtimizning chekka hudularida ham faoliyat olib bormoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'limni asosiy vazifalaridan biri mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash va ma'rifatli ijtimoiy muhitni yaratish hisoblanadi. Ta'lim orqali yangi ilmiy g'oyalar va zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish, raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish, ijtimoiy taraqqiyotga erishish, rivojlangan davlatlar darajasiga yetishish va turmush farovonligini ta'minlash mumkin. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida milliy ta'lim tizimidagi oliy ta'limni isloh qilish, sifatli bilim berish tuzilmasini yaratish, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni samarador jarayonga aylantirish masalalari dolzarflik kasb etmoqda. Mazkur vazifalar ta'limda adolatli boshqaruv va umumiy nazorat tizimini ishlab chiqishni va mavjud shaklini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu bois bugungi kunda oliy ta'lim sifatini oshirish, imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlikni oshirish uchun nazorat-boshqaruv jarayonini isloh qilish, takomillashtirishga doir ko'plab tadqiqotlarga, yangicha yondashuvlarga e'tiyaj kuchaymoqda.

Milliy ta'lim-tarbiya tizimini Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning obyektiv zaruratga moslashtirish orqali yoshlarimiz hayoti davomida duch kelishi mumkin bo'lgan quyidagi kamchilik va muammolarning oldini olish yoki bartaraf etish mumkin:

- yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi globallashtirish ta'sirida o'zgarib, yengil-yelpi, ommaviylik ustuvorligi, noformal harakat va uyushmalarga a'zolik ommalashib, ularning "mashhurlik sindromi" turli ijtimoiy tarmoqlar orqali normaga aylanib borishi;
- ijtimoiy taraqqiyot axborot texnologiyalarining globallashtirish bilan inson hayotini tubdan o'zgartirishi, yoshlarda axborot texnologiyalariga qiziqish bilan birga asosiy qismida unga qaramlik holatini keltirib chiqarishi;
- O'zbekiston ta'lim tizimida eski an'ana va qadriyatlarining saqlanib qolishi, o'tmishdan qolgan ma'naviy ta'lim merosi, adolatsiz oqibatlarini bartaraf etish, eskilik unsurlarini jamiyat ma'naviy ongida saqlanib qolishi;
- ijtimoiy hayotning yuksalishi hamda aholining ijtimoiy munosabatlaridagi demokratik erkinliklarini kengayishi tufayli g'arbning ayrim soxta qadriyatlarining jamiyat hayotiga kirib kelishi;
- bugungi bozor munosabatlarining asosi bo'lgan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka zid nosog'lom ehtiyojlarning vujudga kelishi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh etish dasturini joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan barcha ishlar, birinchi navbatda, mamlakatimizning uzoq muddatli manfaatlari, hozirgi rivojlanish bosqichining mavjud holati va xususiyatlariga javob beradi. Jamiyat taraqqiyotida ilmiy bilimlar tizimi muhim o'rin tutadi. Chunki zamonaviy jamiyat murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy tizim, fan esa uning harakatlantiruvchi kuchi – drayveri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda mutaraqqiy davlatlarning tarixiy tajribasi shuni qo'rsatadiki, mamlakatning jadallik bilan rivojlanishi, ko'plab yutuqlarga erishishi, aholi turmushining farovon bo'lishi, xalq orzu-umidlarining ushali o'sha mamlakatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu ma'noda, mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi kasbini puxta egallagan, intellekti yuqori kadrlarni tayyorlash, toki ular jamiyat taraqqiyotini yanada yuksaltira olsin va xalqaro hamjamiyatda O'zbekiston nufuzini yaxshilay olsin.

"Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz.

“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so’zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o’qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo’ladi»[10].

Prezidentimiz Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatida “Ta’lim sifati oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to’g’ri yo’lidir!”, deb bejizga ta’kidlab o’tmadi. Chunki, Yangi O’zbekiston uchun eng katta investitsiya bo’lgan ta’limni qo’llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilishi, o’qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi albatta ijobiy natijasini beradi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent:» O’zbekiston», 2022. – B.248-249.
2. O’zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan normalar.
3. Erkaev A. Tafakkur erkinligi. T.: 2021, 65-b.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022// <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
5. “Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O’zbekiston yoshlari forumida so’zlagan nutqi). T.: 2021, - B.11, 13.
6. “Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O’zbekiston yoshlari forumida so’zlagan nutqidan iqtiboslar). T.: 2021, 11- va 13- b.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori.
8. “Xalq so’zi” gazetasi 2021-yil 17-iyun, 127 (7907) son
9. Erkaev A. Tafakkur erkinligi. T.: 2021, 65-b.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022// [https:// president.uz/uz/lists/ view/5774](https://president.uz/uz/lists/view/5774)